

## TURON PLITASI RIVOJLANISHINING GEOSINKLINAL DAVRI

**Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

### **АННОТАЦИЯ**

*Maqolda Turon plitasining geosinklinal bosqichida rivojlanishi bilan bog‘liq rivojlanishi va bu davrlarning o‘ziga xos xususiyatilari haqida ta’rif berilgan. Paleozoyning barcha sistemalarida sodir tektonik harakatlar natijasida hosil bo‘lgan uzilmalarning vujudga kelishi yoritib berilgan. Gersin va kaledon burmachenliklarining o‘rni va rivojlangan mintaqalari alohida yoritilgan.*

**Tayanch iboralar:** Paleozoy, gersin, kaledon, Tyan-Shan, Djezkazgan Chuy, Teniz, Turgay.

### **ANNOTATION**

*The article describes the development of the Turanian plate in the geosynclinal stage and the specific features of these periods. The formation of breaks as a result of tectonic movements in all systems of the Paleozoic is explained. The role and developed regions of the Hercynian and Caledonian Burmese regions are highlighted separately.*

**Keywords:** Paleozoic, Hercynian, Caledonian, Tien-Shan, DjezkazganChuy, Teniz, Turgai.

Turon plitasining hududlari paleozoy erasining barcha davrlarida Ural-Tyanshan geosinklinal oblastining tarkibiga kirgan, plitaning turli qismlarining geologik tuzilishi murakkabligi va rivojlanish tarixi turlichaligi bilan tavsiflanadi.

Geosinklinal rivojlanish davri Markaziy Qozog‘istonning g‘arbiy qismi va Shimoliy Tyan-Shan hududida yakunlangan bo‘lib, kaledon burmalanish kechgan. Bu yerda bir qator antiklinoriya va sinklinoriyalar hosil bo‘lgan bo‘lib, bu tuzilmalar shimoliy-g‘arbdan janubda meridionalgacha va shimoliy-sharqdan shimolga qarab qabariq do‘nliklarni hosil qilib o‘zining yo‘nalishini o‘zgartirgan va g‘arb tomonga katta radiusdagi yoysimon egeklik hosil qilgan. Bu oblastning barcha hududlari devondan boshlab geosinklinal rivojlanish yakuniy bosqichga o‘tgan (kaledonid hududlari uchun).

Turon plitasining shimoliy-sharqi qismida Djezkazgan Chuy, Teniz, Turgay va Sirdaryo botiqqliklari hosil bo‘lgan.

O‘rta paleozoyda kaledon burmachenlikgiga mansub barcha oblastlar g‘arbda meridional Sharqi-Ural regional choclar va janubda kenglik va diagonal uzilmalar

sistemasi bilan chegaralangan. Turon plitasining qolgan hududlarida bu uzilmalar ortida geosiklinal rivojlanish davom etgan.

Kaledonidlarning janubiy chekkalari qisman geosinklinal rivojlanishning gersin burmalanishi bilan qamrab olingan va ishlovlangan. Katta Karatau va uning shimoli-g‘arbi davomi va Karatau (Talass-Farg‘ona) va Janubiy-Karatau uzilmalari oralig‘i hududlaridagi kaledonid uchastkalar o‘rta paleozoyda uzilmaoldi miogeosinklinal egeklikni namayonlaydi. Agar quyi paleozoyda Katta Karatau egekligi Ulutauning Baykonur egekligi bilan yagona dugada birlashgan bo‘lsa, o‘rta paleozoyda Karatau uzilmasining yangidan hosil bo‘lishi va shimoliy-g‘arb yo‘nalishda davom etishi natijasida Baykonur egelmasidan ajralgan. Shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda asta-sekin nuragan.

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan kaledonid zonalari gersin miogeosinklinal rivojlanishda qo‘shilgan. Gersin burmahanligi va Katta Karatau shimoliy-g‘arb faza bo‘yicha tarqalgan magmatizim asta-sekin so‘nib borgan, Katta Karatau uzilmalar sistemasi yo‘nalishi bo‘yicha 680 g‘arbiy meridianda butunlay to‘xtagan.

Gersin geosinklinal oblast hududida paleozoyni boshlarida ikkita sistema mavjud bo‘lgan: meridional (Ural) va subkenglik (Tyan-Shan). Birinchisi hududida bir qator geoantiklinal va geosinklinal zonalar ajratilgan bo‘lib, geologik va geofizik materiallar bo‘yicha janubga Orol dengizi rayonigacha cho‘zilib borgan. Bu yerda ular ehtimol murakkab uzilmalar seriyasi bo‘yicha Tyan-Shan geosinklinal sistemasidan turli kengliklarga tarqalgan. Uralning sharqiy zonalaridan ba’zilari yoysimon egelma hosil qilib, asta-sekin Tyan-Shanga mansub zonalariga o‘tgan bo‘lishi mumkin. Tyan-Shan geosinklinal sistemasining ochilib qolgan Tyan-Shan qismida bir qator tuzilmali-fatsial zonalar kuzatiladi. Qizilqumda yer yuzasiga chiqib qolgan poydevorni o‘rganish natijasida va geofizik materiallar tahlili bu zonalarni davom etganligini bildiradi va ba’zi yangi Tyanshanid o‘rasimon ko‘milgan qismlarini ajratish imkonini beradi. Mang‘ishloq, Ustyurt va janubiy Orolbo‘yi rayonlarida bu zonalardan ba’zilari shimoliy-g‘arbdan meridionalgacha o‘zgargan.

Aylanma ko‘rinishga yo‘nalgan o‘rta paleozoy granitizatsiyalarining (Markaziy-Qoraqum, Karabogaz va O‘rta-Kaspiy) keng maydoni subkenglik gersinidlarning tavsnifiy xususiyati hisoblanadi. Bular ehtimol birikmalar markazi yoki yer qobig‘ining materili o‘sish yadrosini o‘zida namyonlash mumkin.

Kechki paleozoy boshlarida qayid qilingan oblast jadal burmahanlik va orogen jarayonini kechirgan. Bu bilan bir vaqtida chekka va periklinal egekliklar, shuningdek, ichki botiqliklar va egekliklar rivojvana boshlagan. Ural burmahan oblastining g‘arbiy chekkalari bo‘ylab Uraloldi chekka egekliklar, uning janubiy botiqliklarida Ural periklinal egelmalar sistemasi shakillangan. Yirik uzilmalar sistemasi bo‘ylab g‘arb-shimoliy-g‘arb yo‘nalishda tor va chuqr mang‘ishloq chiziqli cho‘zilgan manfiy

strukturasi (jelob) joylashgan. Birvaqtning o‘zida kichik o‘lchamdagи chuqur Tuarqir grabeni hosil bo‘lgan. Kechki paleozoyning barcha davri va triasning katta qismida bu egekliklar katta qalinlikdagi malos to‘plamlarini (5-14 km gacha) birlashtirgan jadal cho‘kishni jarayoniga duchor bo‘lgan.

Uralning Atjaksin va Chagray periklinal egekliklari janubda Shimoliy Ustyurt va Orol dengizi tomon ochilgan va keng depressiyasiga o‘tgan bo‘lib, asosan kichik qalinlikdagi (2-5 kmgacha) qizil rangli formatsiya to‘plangan. shuningdek, Mang‘ishloq jelobidan janubda Janubiy Ustyurt va Janubiy Mang‘ishloq hududlarida, Tuarkir grabenidan janub va sharqda Qoraqum va Janubiy-Sharqiy Turkmaniston past tekisliklari hududlarida keng depressiya rivojlangan.

Alovida kichik botiqliklar yuqori paleozoy-trias molaslari bilan Turon plitasining boshqa joylarida ham hosil bo‘lgan. Bunday tipdagi botiqliklar Tyan-Shan ochiq hududida ham ma’lum. Kechki paleozoyda Tyan-Shanning bir qator egekliklariga katta qalinlikdagi vulqon qatlamlarining to‘planishi sodir bo‘lgan.

Kechki paleozoyda Sharqiy-Ural regional choklari bo‘ylab sharqda effuziv-terrigen jinslardan tashkil topgan o‘ziga xos egekliklar (Kushmurun va Tyuratam) hosil bo‘lgan. Ularning shakillanishi erta triasgacha davom etgan. Bu egekliklarni Uraloldi chekka egekliklar gomologi sifatida qarash mumkin. Bular ko‘tarilib boradigan Ural burmaghan sistemasidan sharqda kaledon asosda rivojlangan.

Yuqori paleozoy-triasda Turon plitasining katta qismida cho‘kindi to‘planish sodir bo‘lmagan. Yuqori paleozoygacha bo‘lgan jinslar burmaghanligi yuqoriga chiqib qolgan va tekislangan bo‘lib, arofidagi egekliklar va botiqliklar uchun material tashish manbai hisoblanadi.

Triasning ikkinchi yarimida chuqur egekliklarni to‘ldirgan (Mang‘ishloq, Janubiy-Ural, Uraloldi vab.), yuqori paleozoy-trias jinslari jadal burmaghanlikka duchor bo‘lgan va chiziqli burma sistemasida siqilgan. Mang‘ishloq jelobini va Tuarkir grabenini chegaralaydigan uzilmalar bo‘ylab, jadal yuqori trias burmaghanligi nafaqat bu egekliklardagi jinslarni qamrab olgan, bulki uzilmalarga tutash bo‘lgan ko‘tarilmalardagi yuqori paleozoygacha bo‘lgan jinslarni ham qamrab olgan. Bu haqda tarkibida vutigenli kaliy bo‘lgan minerallarningabsolyut yoshi (180-200 mln. yil) dalolat beradi. Bu minerallar Markaziy Ustyurtda yuraosti yotqiziqlarining quduqlar orqali ochilgan yuqori paleozoygacha bo‘lgan jinslardan ajratib olingan. Bu minerallarni hosil bo‘lishi regional metamorfizm tasiri ostida sodir bo‘lgan. Yuqorida qayid etilgan egekliklar (shuningdek, ko‘tarilmalar) yuqori trias burmalanish natijasida burmaghan-xarsangli tog‘ inshootlariga aylangan. Shimoliy va Janubiy Ustyurt, Janubiy Mang‘ishloq, Qoraqum va Janubiy-sharqiy Turkmaniston hududlarida yuqori paleozoy-trias yotqiziqlari kuchsiz dislokatsiyalangan. Bu hududlar yuqori trias burmaghanligidan sung yuqori paleozoy-trias depressiyasi ancha bukilgan.

## ADABIYOTLAR

1. Вольвовский И.С., Гарецкий Р.Г., Шлезингер А.Е., Шрайбман В.И. Тектоника Туранской плиты / издательство «Наука» Москва 1966
2. . Ахмедов Х.Р., Панжиев Х.А., Эшмуродов А.П. «Строение юрско-меловых отложений центральной части Бухаро-Хивинского нефтегазоносного бассейна» Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей «StudNet» №5/2021
3. Ахмедов Х. Р.Тектонические и геодинамические характеристики нефтегазоносности бухаро-хивинскойнефтегазоносной регион //«Цифровые технологии, инновационные идеи иперспективы их применения в сфере производства» Международная научно-практическая конференция12 июнь 2021 йил, Андижон, 22-25 б.